



Gulandom DALIMOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d  
E-mail: dalimova@list.ru

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, k.f.n. S.Maulyanov taqrizi asosida

### KIMYOVIY EKOLOGIYA KURSIDA «YASHIL KIMYO PRINSIPLARI»NI O'QITISH\*

(\* - maqolaning 1-qismi O'zMU xabarlarji jurnalining 2024 yil 3/1 sonida keltirilgan)

Annotasiya

Maqolada Tabiiy fiziologik faol birikmalar kimyosi yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan yangi o'quv kursi – Kimyoviy ekologiya kursida “yashil kimyo” prinsiplarini o'qitishning o'ziga xos taraflari, uslubiy yondoshishlari, ushbu prinsiplarning mazmuni va ahamiyati ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil kimyo, yashil kimyo prinsiplari, kimyoviy ekologiya, atrof-muhitning ifloslanishi, atrof-muhit muhofazasi, xom ashyo zahiralar, biotexnologiya, kimyo sanoati, pestisidlar, fosfororganik birikmalar.

### TEACHING “PRINCIPLES OF GREEN CHEMISTRY” IN THE COURSE OF CHEMICAL ECOLOGY

Annotation

The article discusses specific aspects, methodological approaches, content and significance of the principles of “Green Chemistry” in a new educational course Chemical ecology, developed for the field of chemistry of natural physiologically active compounds.

**Key words:** green chemistry, principles of green chemistry, chemical ecology, environmental pollution, environmental protection, raw materials, biotechnology, chemical industry, pesticides, organophosphorus compounds.

### ПРЕПОДАВАНИЕ “ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ ХИМИИ” В КУРСЕ ХИМИЧЕСКАЯ ЭКОЛОГИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются конкретные аспекты, методические подходы, содержание и значение принципов «зеленой химии» в новом учебном курсе Химическая экология, разработанном для образовательного направления химия природных физиологически активных соединений.

**Ключевые слова:** зеленая химия, принципы зеленой химии, химическая экология, загрязнение окружающей среды, охрана окружающей среды, сырьевые ресурсы, биотехнология, химическая промышленность, пестициды, фосфорорганические соединения.

**“Yashil kimyo” jarayonlarida kataliz va erituvchilar.** Kimyoviy jarayonlarda erituvchilar asosiy ifloslantiruvchilar (80-90%) hisoblanadi. Neft'ni qayta ishlashi natijasida olingan oddiy organik erituvchilar toksik moddalar bo'lib, atrof-muhitga, inson salomatligiga va xavfsizlikka zarar o'tkazadi. Organik sintezda qo'llanishi mumkin bo'lgan “yashil” erituvchilar biologik parchalanishga moyil, zaharliligi past, qaynash temperaturasi yuqori, oson qayta ishlanadigan va suv bilan aralashmaydigan moddalar bo'lishi kerak. Suv, ionli suyuqliklar (IS), polietilenglikollar va ba'zi superkritik suyuqliklar - superkritik flyuidlar (SKF) “yashil kimyo” jarayonlari uchun eng mos moddalaridir. Shu asnoda zaharsiz va biologik parchalanuvchi modda – gliserin “yashil organik sintez” uchun juda mos keladi va ba'zan “organik suv” deb ataladi. Gliserinin qulay xossalari: biologik parchalana olishi, narxining pastligi, bug'lari bosimining pastligi, qaynash temperaturasining yuqori ekanligidir. Bundan tashqari, gliserin alifatik uglevodorodlar bilan aralashmaydi, yuqori darajada qutblilikka ega, vodorod bog'larini hosil qila oladi, organik va noorganik moddalarini yaxshi eritadi [1].

**Superkritik suyuqliklar, superkritik flyuidlar (SKF) yoki “yashil” erituvchilar.** Yashil kimyoning yo'nalishlaridan biri erituvchilarini almashtirish bilan bog'iq. Яшил Kimyoviy jarayonlarda erituvchi sifatida suv, biologik parchalanuvchi “yashil erituvchilar”, ionli suyuqliklar (past temperaturalarda suyuqlanuvchi tuzlar), superkritik suyuqliklar (deyarli suyuqlik holatigacha siqilgan gazlar) ishlatiladi.

Superkritik suyuqliklardan foydalananish ko'pincha uchuvchan organik erituvchilarini almashtirish bo'yicha va yangi, toza texnologiyalarni ta'minlovchi yashil kimyodagi muhim strategiya kabi ta'kidlanadi. Hozirgi davrida qarib 20 yildan beri superkritik suyuqliklar yordamida tabiiy birikmalarni turli masshtablarda ajratib olish bo'yicha klassik misollarni mavjud. Ushbu misollarning ko'pchiligidagi qattiq substratlarga superkritik CO<sub>2</sub> ta'sir ettirilishi natijasida kutilgan mahsulotni olish yoki keraksiz qo'shimcha moddalarini yo'qotish kuzatiladi. Kimyoviy reaksiyalarda superkritik CO<sub>2</sub> reagentlarning erituvchisi yoki katalizator vazifasini bajarib, ularning ta'sir etishini osonlashtiradi [2].

Cuperkritik holatda moddalar alohida o'ziga xos xususiyatlarni -suyuqliknинг erituvchanlik xususiyatini va gazning yuqori kiruvchanlik xususiyatlarni namoyon qiladi. Ushbu xususiyatlarning birgalikda jamlanishi superkritik suyuqliklarni ko'pchilik texnologik jarayonlarda samarali erituvchi sifatida qo'llanilishi, inson va tabiat uchun havли bo'lgan organik erituvchilarini xavfsiz superkritik erituvchilarga almashtirilishini ta'minlaydi. Ekologik toza erituvchilar orasida yonmaydigan, zaharli bo'lmagan superkritik CO<sub>2</sub> (scCO<sub>2</sub>) polimerlar sintezida yashshi alternativ erituvchi sifatida anchadan beri ma'lum [3]. Eng ko'p tarqalgan va ekologik xavfsiz moddalarindan biri bo'lgan suvni superkritik xolatga o'tkazish ancha qiyin, chunki uning kritik nuqtasi parametrlari juda katta: T<sub>kr</sub> = 374°C, P<sub>kr</sub> = 220 atm. Zamona naviy texnologiyalar bunday ko'rsatkichlarga javob bera oluvchi qurilmalarni yaratish imkonini beradi, biroq, bunday temperatura va bosim diapazonlarida ishslash bir muncha qiyin kechadi. Superkritik suv deyarli barcha organik moddalarini (ko'rsatilgan temperaturada parchalanib ketmaydigan moddalarini) erita oladi. Superkritik suvgi kislorod qo'shilganda u juda kuchli oksidlovchi muhitga aylanadi: har qanday organik modda bunday muhitda bir necha minut davomida H<sub>2</sub>O va CO<sub>2</sub> ga aylanadi. Hozirgi vaqtida kimyogarlar ushbu usul yordamida maishiy chiqindilarni, eng avvalo plastik idishlarni qayta ishslash ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar [4].

Superkritik CO<sub>2</sub> ning erituvchanlik qobiliyati geksanning erituvchanligiga o'xshashdir, va mana shu xossasi tufayli oziq-ovqat sanoatida qo'llanadi. Mashalan, yashil kofe donalaridan kofeinni ajratib olish uchun scCO<sub>2</sub> ishlatiladi. Ushbu jarayon yordamida katta masshtablarda kofein ajratib olinadi. Bunda faqat kofeinni ekstraksiya qilib, boshqa aromatik komponentlar xom ashyo tarkibida saqlanib qoladi, erituvchi esa o'zidan hech qanday iz qoldirmaydi. Shunga o'xshash texnologiyalar pivo ishlab chiqarilishida oddiy qulmoqni (xmel') ekstraksiya qilishda, tamakidan nikotinni ekstraksiya qilib ajratib olishda, hamda parfyumeriya sanoatida turli aromatik birikmalarini ekstraksiya qilishda qo'llanadi. Hozirgi davrida organik erituvchilarni boshqa sohalarda ham scCO<sub>2</sub> ga almashtirish borasida tadqiqotchilarning urinishlari sezilarli darajada ortgan. An'anaviy organik erituvchilardan foydalananish borgan sari qimmatlashmoqda, scCO<sub>2</sub> ni qo'llash esa nafaqat ekologik jihatdan toza, balki samaraliroqdir.

Superkritik erituvchilar qo'llanadigan texnologiyalar yangi materiallar sintezida, ekstraksiya, tozalash, fraksiyalash, polimerizasiya, gidrotermal reaksiyalar, materiallarga qoplamlarni surtish, biomassani qayta ishslash, bo'yash va boshqa jarayonlarda erituvchi talab qilinmaydigan

muhitni yaratib, shuningdek jarayonning oddiyligi va qayta foydalanish imkoniyatini, yuqori unum, oqava suvlarning va ikkilamchi ifloslantiruvchi moddalarning hosil bo'lmasligini ta'minlab bermoqda [5].

Superkritik erituvchilarning kimyoviy texnologiyada ishlatalishining afzalliklari quyidagilardan iborat [6]:

Ekologik ahamiyati. Atrof-muhit barqarorligiga erishish unga bo'ladigan ta'sirlarning minimizasiyasidan boshlanadi, va superkritik suyuqliklar ushbu aspektka eng yaxshi erituvchilar hisoblanadi. Galogenuglevodorodlar yoki uchuvchan organik birikmalardan farqli ravishda superkritik suyuqliklar toksik emasligi, yonuvchan emasligi bilan ajralib turadi. Ularning ushbu xususiyatlari inson salomatligiga salbiy ta'sir va atrof-muhit ifloslanishi xavflarini mustasno etadi. Bundan tashqari, superkritik suyuqliklarning erituvchanlik xususiyati juda yuqori bo'lib, ushbu jarayonlarda zararli chiqindilar hosil bo'lmaydi.

Uglerod izining qisqartirilishi. "Yashil" erituvchilarning alohida xususiyatlardan biri atrof-muhitga uglerod saqlowchi chiqindilar chiqarilishining kamaytirilishi va energiya sarfining qisqartirilishidir. Superkritik suyuqliklar turli jarayonlarda qayta ishlovdan so'ng yana ishlatalish uchun jarayonga cheklamagan vaqt davomida kiritilishi mumkin. Energiya sarfini katta hajmda talab qiluvchi jarayonlarni yoki utilizasiya usullarini talab qiluvchi an'anaviy erituvchilaridan farqli ravishda superkritik suyuqliklar yopiq sikel bo'yicha ishlatalib, chiqindilar hosil bo'lishini ahamiyatli darajada kamayishiga va energiya sarfining qisqartilishiga olib keladi.

Qo'llash sohalarining universalligi. Superkritik suyuqliklar sanoatning turli sohalarida qo'llanishi mumkin: farmasevtikadan tortib to oziq-ovqat sanoatigacha. Farasevtika sanoatida superkritik suyuqlik flyuid ekstraksiyasi usuli (SCFE) tabiiy birikmalarini ajratib olishda, tozalashda va dori vvosalalarini yetkazish sistemalarida ishlataladi. Analogik tarzda oziq-ovqat sanoatida superkritik SO<sub>2</sub> dekofeinizasiyada, aromatizator va hid beruvchchi moddalarni ajratib olishda, hamda qo'shimcha moddalarni yo'qqotishda ishlataladi.

Yuqori selektivlik va samaradorlik. Superkritik suyuqliklarning tayanch afzalliklariidan biri ularning ekstraksiya jarayonlarida yuqori selektivlik qobiliyatidir. Temperatura, bosim va tarkib kabi parametrlarning nozik sozlanishi tufayli ishlab chiqarish jarayonlarida alohida olingan moddalarni ajratib olish mumkin, va shu bilan ekstraksiyaning samaradorligi va sofigiga erishish mumkin. Bunday selektivlik jarayonlar mobaynidagi qayta ishlash operatsiyalarini minimumga olib keladi, bu esa o'z navbatida surf-xarajatlar iqtisodiga va jarayonning barqarorligiga olib keladi.

Suvsiz jarayonlar. Ko'pchilik sanoat jarayonlarida suv erituvchi yoki qayta ishlash muhitni sifatida xizmat qiladi. Bu suvning katta sarfiga va oqava suvlar hosil bo'lishiga olib keladi. Superkritik suyuqliklar yordamida suvsiz kimyoviy jarayonlarni o'tkazish va imkon ochiladi. Bu esa suvning katta hajmda surf etilishi va oqava suvlarini tozalash zaruratining oldini oladi. Masalan, kannabis moyini ekstraksiya qilib ajratib olish, ekstraksion xromatografiya kabi jarayonlarni olib borish barqaror yechimlarni ta'minlab beradiki, ular suvni iqtisod qilish va atrof-muhit muhofazasi prinsiplariga mos keladi.

Yashil kimyo prinsiplariga mos kelish. Yashil kimyo prinsiplarini hayotga joriy etish barqaror sanoat jarayonlariga erishishda birinchida darajali ahamiyat kasb etadi. Shu asmoda superkritik suyuqliklar yashil kimyo prinsiplariga uzyvi ravishda mos keladi. Bu chiqindilar hosil bo'lishining minimallashiuviga, qayta tiklanuvchi resurslarning ishlatalishida va jarayonlarning samaradorligida o'z aksini topadi. Bundan tashqari, superkritik suyuqliklarning yumshoq sharoitlarda qo'llanishi temperaturaga sezgir birikmalarning saqlanib qolishiga va pirovardida energiya sarfining qisqartirilishiga, ekologik toza materiallardan foydalanishga olib keladi.

Normativ qoidalarning amal qilishi va iste'molchilarning talablarini. Qattiq normativ qoidalar va iste'molchilar xabardorligi darajasining ortishi bilan belgilangan hozirgi davrda ishlab chiqarish korxonalaridan ekologik xavfsiz, toza jarayonlarni olib borish talab qilinmoqda. "Yashil" erituvchilaridan foydalanish ishlab chiqarish korxonalarining o'z "brend"i reputasiyasini yaxshilashga, raqobatbardoshligining ortishiga va atrof-muhit muhofazasi masalalariga o'z ulushimi kiritishga olib keladi.


Iqtisodiy samaradorlik va uzoq muddatli iqtisod. Superkritik texnologiyalarga kiritiladigan dastlabki investisiyalar qo'rqinchli bo'lib tuyulsa ham, uzoq muddatli foyda xarajatlardan ko'proq bo'lishi kutiladi. Kimyoviy jarayonlarni optimallashtirish, chiqindilar miqdorini kamaytirish natijasida superkritik suyuqliklar vaqt o'tgan sari energiyaning ahamiyatli darajada iqtisodini ta'minlab beradi. Bundan tashqari, surenkritik texnologiyalarning universalligi ularidan mul'tifunksional foydalanishni ta'minlaydi, bu esa kimyoviy korxonalarga resurslardan optimal foydalanish va investision xarajatlarni maksimal qoplash imkoniyatini beradi.

**Ionli suyuqliklar.** "Yashil kimyo" maqsadlari uchun suvdan keyingi o'rinda turuvchi yaxshi erituvchilar - ionli suyuqliklardir. Ionli suyuqliklar faqat ionlardan iborat bo'lgan suyuqliklardir. Ushbu tushunchani keng ma'noda keltirsak, ionli suyuqliklar – har qanday suyuqlanma (rasplav) tuzlardir. Hozirgi davrda "ionli suyuqlik" termini ostida ko'pincha suyuqlanish temperaturasi suvning qaynash temperaturasidan past bo'lgan, ya'ni 100°C dan past bo'lgan tuzlar nazarda tutiladi, xususan, xona temperaturasida suyuqlanuvchi tuzlar shular jumlasidandir, ularni «RTIL» yoki «Room-Temperature Ionic Liquids» deb nomlash qabul qilingan. Ionli suyuqliklar tarkibiga ko'pincha [PF<sub>6</sub><sup>-</sup>], [BF<sub>4</sub><sup>-</sup>], [CF<sub>3</sub>SO<sub>3</sub><sup>-</sup>], tozilat, alkilsulfat, [CH<sub>3</sub>COO]<sup>-</sup>, NO<sub>3</sub><sup>-</sup>, Cl<sup>-</sup> kiradi, alkil zanjirlari sifatida esa etil, butil, geksil, oktil va desil radikallari ishtirot etadi.

Ionli suyuqliklarning molekulalari klassik ionli birikmalarga nisbatan ancha past simmetriyaga ega. Molekulalari o'ttasida vodorod bog'larini ishtirot etuvchi suvdan, van-der-waals' kuchlari ishtirot etuvchi organik erituvchilaridan farqli ravishda ionli suyuqliklarda kulon o'zaro ta'sirlari asosiy hisoblanadi.


**Ionli suyuqliklarning klassifikasiysi.** Ionli suyuqliklar sirasiga keng spektrdagи muddalar kiritiladi, shuning uchun ulami klassifikasiya qilish masalasi qiyinchilik tug'diradi [7]. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ionli suyuqliklarni bir necha sinfga bo'lish mumkin:

- Organik kation va noorganik aniondan tuzilgan ionli suyuqliklar;
- Noorganik kation va organik aniondan tuzilgan ionli suyuqliklar;
- Organik ionli suyuqliklar;
- Noorganik ionli suyuqliklar;
- Xiral ionli suyuqliklar;




1-расм. Ионли суюқликлар таркибига кирувчи баъзи катионлар

Ionli suyuqliklar termik barqaror, elektr o'tkazuvchan, qovushqoqligi yuqori va kuchli erituvchilar bo'lib, bug'larining bosimi past (~10<sup>10</sup> Pa, 25°C da). Ularning ba'zilari magnit xususiyatiga ega, masalan, 1-butil-3-metilimidazoliy tetraxlorferrat. Ionli suyuqliklardan eng ko'p o'rganilgani 1-butil-3-metilimidazoliy geksaftorfosfat (BMIM-PF6) – qovushqoq, rangsiz, gidrofob, suvda erimaydigan, suyuqlanish temperaturasi -8°C ga teng modda:

2-расм. 1-butyl-3-metylimidazolyl gelsaftorfosfat (BMIM-PF<sub>6</sub>)

Masalan, siklik yononlar (1) va arilaminlarning (2) o'zaro ta'siri natijasida 87-97% unum bilan 1-aryl-2-arylamin-5-triforasetil-1,2,3,4-tetragidropiridinlarni (3) olish yo'iga qo'yilgan. Bunda reaksiyaning davomiyligi tanlangan usulga qarab keng diapazonni tashkil etadi. Ayni vaqtida sintezda 1-butyl-3-metylimidazoliy tetraftorboratning [BMIM, BF<sub>4</sub>] qo'llanilishi va jarayonning mikro'lqinli nurlanish ta'sirida olib borilishi reaksiya davomiylini 1 minutgacha qisqarishiga olib keladi. Bu jarayon davomida sinergetik effekt mavjudligidan dalolat beradi [8]:



Kimyoiy birikmalarning ionli suyuqliklarda eriy olishi vodorod bog'larining mavjudligiga va moddaning qutbliligiga bog'liq. Ionli suyuqliklar kimyoiy jarayonlarda erituvchi vazifasini o'tashidan tashqari, gazlar bilan ish olib borilganda, ko'mirni qayta ishlashda, farmasevtik preparatlar ishlab chikarishda, yadro yoqilg'isi va sellulozani qayta ishlashda va boshqa qator maqsadlarda ishlatalidi. Hozirgi vaqtga kelib 1000 ga yaqin ionli suyuqliklar ma'lum, jumladan ularning 300 tasi kommersiya jihatidan sotib olish mumkin bo'lgan mahsulotlardir.

**Xulosa.** Shunday qilib, oxirgi yillarda e'lon qilingan adapiyotlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan "yashil kimyo" va uning prinsiplari, "yashil kimyoning" umumiyyat usullariga bag'ishlangan tahliliy ma'ruba shuni ko'rsatdi, kimyo fanining rivojlanishi 20-asrning oxirlaridan boshlab hozirgi davrغا qadar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan. Kimyo va biologiya yo'nalishlariда ta'lim olayotgan talabalar ushu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, erishilgan natija va yutuqlar, ularning xalq xo'jaligining turli sohalariga qay tarzda tatbiq etilayotgani haqida umumiy bilimga ega bo'lislari davr taqozosidir. Bunday bilimlarga ega bo'lisl bo'lajak mutaxassislarning fikr doirasini, bilim saviyasini kengaytiradi, ta'lim sifatini yuqori bosqichlarga ko'taradi.

#### ADABIYOTLAR

- Díaz-Álvarez A.E., Francos J., Crochet P., Cadierno V. Recent advances in the use of glycerol as Green solvent for synthetic organic chemistry // Curr. Green Chem. – 2014. – 1. – P.51–65.
- Amita Chaudhary, Ankur Dwivedi, Sreedevi. Chapter 28 - Supercritical fluids as green solvents / Handbook of greener synthesis of nanomaterials and compounds. - Volume 1: Fundamental Principles and Methods. – 2021. – P.891–916.
- Wood C.D., Cooper A.I., Desimone J.M. Green synthesis of polymers using supercritical carbon dioxide // Curr. Opin. Solid State Mater. Sci. – 8. – P.325–331.
- Adschari T., Lee Y.W., Goto M., Takami S. Green chemistry Green materials synthesis with supercritical water // Green Chem. – 2011. – 13. – P.1380–1390.
- Lonkar S.P., Pillai V., Abdala A. Solvent-free synthesis of ZnO-Graphene nanocomposite with superior // Appl. Surf. Sci. – 2019. – 465. – P.1107–1113.
- Reasons Why Supercritical Fluids are Called Green Solvents /
- <https://www.buffaloextracts.com/knowledge/reasons-why-supercritical-fluids-are-called-green-solvents/>
- Бурмистр М.В., Свердликова О.С., Бурмистр О.М., Феденко О.А. Современное состояние и основные тенденции развития перспективных ионных жидкостей // Вестник Удмуртского университета. Физика. Химия. - 2012. - №1. - С.55–68.
- Chabakova A.K., Shchepetova E.V., Abdurakhmanova N.M. Ionic liquids in organic synthesis // Advances in current natural sciences. - 2018. - № 12. – P.216–226.